



QONUNCHILIK TARTIBGA SOLISH TA'SIRINI BAHOLASH TUSHUNCHASI VA METODOLOGIYASI

Jo'ramurodov Dilshod O'tkirovich

Workplace: Responsible Officer at Tashkent City
Department of Justice

Email: dilshodjoramurodov07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15364088>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2025 yil

Ma'qullandi: 05-May 2025 yil

Nashr qilindi: 08-May 2025 yil

KEYWORDS

qonunchilik tartibga solish, ta'sirni baholash, metodologiya, iqtisodiy samaradorlik, siyosiy ta'sir, ijtimoiy tizim.

ABSTRACT

Maqolada qonunchilik tartibga solishning ta'sirini baholashning tushunchasi va metodologiyasi tahlil qilinadi. Ushbu ilmiy ishda, qonunchilikning samarali ta'sirini aniqlash va baholashning metodologik asoslari, asosan, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy aspektlardan yondashiladi. Shuningdek, qonunchilik jarayonlarining samaradorligini o'lchash uchun zarur bo'lgan metrikalar va metodlar muhokama qilinadi. Maqola qonunchilikni samarali tarzda tartibga solish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimga bo'lgan ta'sirini yaxshilashga qaratilgan aniq tavsiyalarni taqdim etadi.

Zamonaviy davlat boshqaruvida tartibga solish siyosati samaradorligini ta'minlash, uning ijtimoiy, iqtisodiy, atrof-muhitga nisbatan ta'sirini oqilona tarzda yo'naltirish, shuningdek, fuqarolar oldida shaffof va ishonchli mexanizmlarni shakllantirish davlatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Huquqiy jihatdan olib qaralganda, "tartibga solish" tushunchasi davlat tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan huquqiy majburiyatlar, vakolatlar yoki imtiyozlarni belgilovchi normativ-huquqiy mexanizmlar tizimini ifodalaydi. Bu siyosat asosan davlat hokimiyati organlarining norma ijodkorligi faoliyati orqali ro'yobga chiqariladi.

Nazariy va amaliy jihatdan qaralganda, har qanday normativ tartibga solish mexanizmlari kutilgan natijani bermasligi yoki salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Xususan, haddan tashqari byurokratik yondashuv, nomaqbul tartiblar, yoki chalkash normalar iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatishi, fuqarolarda hukumatga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, rivojlangan davlatlar tajribasida **Tartibga solish ta'sirini baholash (Regulatory Impact Assessment — RIA)** instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu institut normativ-huquqiy hujjatlarning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini huquqiy, iqtisodiy va institutsional mezonlar asosida tahlil qilish orqali qonunchilik tashabbuslarining izchilligi va asosligini ta'minlashga qaratilgan. Tartibga solish ta'sirini baholash mexanizmlari tartibga solish tashabbuslarining ehtimoliy foyda va zararlari, alternativ yechimlar mavjudligi va ularning nisbiy afzalliklarini aniqlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, davlatning tartibga solish siyosati inson hayotining deyarli barcha jabhalariga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Oddiy fuqaro kundalik hayotida bu siyosat samarasini anglamagan bo'lishi mumkin, biroq u iste'mol qilayotgan oziq-ovqat

mahsulotining sifati, sog'lig'i xavfsizligini ta'minlaydigan tibbiy xizmatlar, xavfsiz mehnat sharoitlari yoki jamoat transportidan foydalanish jarayonida ushbu siyosatning amaliy natijalarini boshdan kechiradi. Shunday qilib, me'yoriy-huquqiy normalar orqali joriy etiladigan tartiblar inson salomatligi, xavfsizligi va umumiy farovonligini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Har qancha odatiy va tabiiydek tuyulmasin, bu qoidalar zahirida murakkab huquqiy mexanizmlar, ehtiyotkorlik bilan olib borilgan tahlillar va keng muhokamalar yotadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida ochiqlik va adolatlilik prinsiplariga to'liq amal qilinmasligi, shuningdek, haddan tashqari murakkab va cheklovchi tartiblarning joriy qilinishi ularning amalda to'laqonli ijro etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, manfaatdor tomonlar – xususan, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolar – uchun mantiqiy asosga ega bo'lmagan yoki ortiqcha byurokratik talablarning mavjudligi, bu hujjatlarning ijrosini ta'minlashni murakkablashtiradi va ko'pincha befarqlik yoki qarshilik kabi holatlarga sabab bo'ladi. Huquqiy nuqtai nazardan qaralganda, bunday holatlar qonunchilik ijrosi samaradorligiga putur yetkazibgina qolmay, balki fuqarolarning davlat boshqaruvi institutlariga bo'lgan ishonchini pasaytiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois, zamonaviy regulativ yondashuvlarda faqatgina qoidalarni joriy etish emas, balki ularning dolzarbligi, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan oqilonaligi hamda qo'llash imkoniyati muhim mezonlar sifatida qaralishi lozim.

Tartibga solish siyosatini takomillashtirish jarayonida ishtirokchilik, hujjatlarni jamoatchilik muhokamasiga qo'yish, manfaatdor tomonlar bilan fikr almashish kabi tamoyillarni keng joriy etish zarurati ortib bormoqda. Aynan mana shu omillar orqali tartibga solish muhitining adolatlilik, samarali va ishonchli shakllanishiga erishish mumkin bo'ladi.

Tartibga solishga muhtoj bo'lgan sohalarida **davlat aralashuvining zarurati** bir qancha huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida eng muhimlaridan biri sifatida ijtimoiy adolatlilikni ta'minlash ehtiyoji ajralib turadi. Ayniqsa, davlatning xususiy mulk huquqini himoya qilishga doir konstitutsiyaviy funksiyasi ushbu jarayonda markaziy o'rin tutadi.

Mulk huquqi — fuqaroning o'z mulkini egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini o'zida mujassam etgan asosiy real huquqlardan biridir. Ushbu huquq aniq va qat'iy belgilanmagan taqdirda, unga asoslangan huquqiy munosabatlar noturg'unlikka yuz tutadi va amaliyotda nizolar ko'payadi. Chunki har bir fuqaro mulkni o'zining shaxsiy manfaatlariga muvofiq ravishda boshqarishga intiladi. Agar esa huquqiy tartibotda bu munosabatlarning chegaralari va ishtirokchilarning huquq hamda majburiyatlari belgilab qo'yilmagan bo'lsa, yuzaga keluvchi kelishmovchiliklar ko'pincha qonuniy mexanizmlar emas, balki kuch ishlatish, bosim o'tkazish yoki ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtiruvchi vositalar orqali hal etilishi mumkin bo'ladi.

Bunday holat esa inson huquqlarining buzilishiga, mulkiy daxlsizlik prinsipining izdan chiqishiga va nihoyat, huquqiy davlat tamoyillariga putur yetkazishga olib keladi. Shu sababli davlat huquqiy muvozanatni saqlash, shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash hamda umumiy manfaatlar yo'lida mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi subyekt sifatida faol ishtirok etishga majburdir.

Huquqiy nuqtai nazardan olib qaraganda, davlatning bu boradagi ishtiroki "regulyatorlik" funksiyasi orqali namoyon bo'ladi. Ya'ni davlat — qonuniy asosda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar yordamida mulkiy munosabatlar doirasidagi ijtimoiy

aloqalarni uyg'unlashtiruvchi, nizolarni huquqiy yo'l bilan hal qiluvchi va fuqarolarning qonuniy manfaatlarini muhofaza etuvchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, tartibga soluvchi siyosat nafaqat iqtisodiy faoliyat yoki institutsional islohotlar uchun, balki shaxsiy huquqlarni real ta'minlash va ijtimoiy adolatni qaror toptirish uchun ham dolzarb zarurat sifatida yuzaga chiqadi. Misol uchun, kechki paytlarda jamoat ovqatlanish joylari va dam olish maskanlarida ish olib boradigan biznes vakillari uchun o'z muassasalarini videokuzatuv uskunalari bilan ta'minlash shartligi belgilangan. Shunday ekan, bu yerda davlatning aralashuvi qanchalik zarur bo'lishi mumkin?

Ma'lumki, davlat va hokimiyat paydo bo'lishi to'g'risida eng asosiy nazariyalardan biri "Ijtimoiy shartnoma nazariyasi" hisoblanadi. Ijtimoiy shartnoma shuni nazarda tutadiki, unda odamlar o'z suveren huquqlaridan davlatning foydasiga voz kechishadi, buning evaziga esa huquq va manfaatlarini uning vositachiligida amalga oshirishadi. Bunda ijtimoiy shartnoma tuzilishidan ko'zlangan asosiy maqsad xavfsizlik sanaladi (Tomas Gobbs, Leviatan, 1651). Ya'ni kishilar xavfsizlik evaziga o'z erkini davlat ixtiyoriga topshiradi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, aholining davlatdan eng ko'p kutadigan funksiyasi xavfsizlikni ta'minlash hisoblanadi. Bunda davlat aralashuvining zarurati amaldagi tartibga solish vositalarining samarasizligiga hamda jinoyatchilikning oldini olish, xavfsizlikni ta'minlashdagi muammolarda namoyon bo'ladi."¹

Boshqacha aytganda, davlat tomonidan umumiy ovqatlanish va ko'ngilochar obyektlarga videokuzatuv tizimlarini o'rnatish talabining qo'yilishi, xavfsizlikni ta'minlash yo'lida davlatning regulyativ funksiyasini namoyon etadi. Bu aralashuv fuqarolar o'z erkinliklarining bir qismini davlat foydasiga topshirib, evaziga xavfsizlik kafolatini olishlarida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, xavfsizlikni ta'minlash maqsadida davlat aralashuvining zarurati nafaqat ijtimoiy ehtiyoj, balki konstitutsiyaviy majburiyat sifatida ham huquqiy asosga ega hisoblanadi.

XX asr davomida davlatlar tomonidan amalga oshirilgan tartibga solish tasirini baholash hajmi sezilarli darajada kengaydi. Biroq bu kengayish ko'plab yashirin iqtisodiy va institutsional xarajatlarni yuzaga keltirdi. An'anaviy tartibga solish yondashuvining ortiqcha yuk bo'lishi, zamon talablari bilan mos kelmasligi, mavjud me'yoriy mexanizmlarning yangilanmasligi davlatlar siyosati samaradorligini pasaytirdi. Ayni paytda, tartibga solish tizimida yuzaga kelgan inqiroz holatlarini yengillashtirishga qaratilgan islohotlar ko'pincha kechiktirildi yoki ularning amalga oshirilishiga byurokratik to'siqlar qo'yildi.

Islohotlarning samara bermasligiga sabab qilib, hukumatlar siyosatining muvofiqlashtirilmaganligi, manfaatdor tomonlarning qisqa muddatli foydalarini ko'zlab, tizimli o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishi, shuningdek, tartibga soluvchi vakolatlarining turli darajadagi idoralar o'rtasida bo'linib ketgani keltiriladi. Bu esa o'z navbatida, normativ-huquqiy hujjatlarning takroriyliigi, bir-biriga zidligi va ortiqcha tartibga solish holatlariga sabab bo'ldi. Bunday murakkabliklar "tartibga solish inflyatsiyasi" deb ataluvchi hodisaga olib keldi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, xususan 1970-yillarda, tartibga solish siyosatini isloh qilish bo'yicha dastlabki harakatlar boshlangan bo'lsa-da, "tartibga solish ta'sirini baholash" siyosiy vosita sifatida to'liq shakllanmagan edi. Faqat 1980-yillarda AQSh,

¹ Тартибга солиш таъсирини баҳолаш. Ўқув қўлланма. – М.Аллакулиев, М.Назаров, М.Кабиллова, Д.Пардаев, М.Нажмиддинов. – Тошкент: «...», 2024. – ...б

Avstraliya va Yangi Zelandiyada ortiqcha me'yoriy yuklama iqtisodiy o'sishga to'siq bo'layotgani tan olinib, "tartibga solmaslik" yondashuvi muqobil siyosiy yo'nalish sifatida ilgari surildi. Ammo ushbu yondashuvning cheklanganligi sababli 1990-yillarda yanada takomillashgan va puxta asoslangan "sifatli tartibga solish" konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv ortiqcha hujjatlarni bekor qilish emas, balki funksional, aniq, zamonaviy va samarador me'yorlarni ishlab chiqishga urg'u berar edi. Keyinchalik bu yondashuv asosida Yevropa Ittifoqi 2001 yilda o'zining "aqlli tartibga solish" strategiyasini ishlab chiqdi.

"**Aqlli tartibga solish (smart regulation)** asosan tez o'zgarayotgan muhitga javob berishga qaratilgan bo'lib, uzoq yillarga mo'ljallangan qat'iy me'yorlar o'rniga moslashuvchan (doimiy yangilanib boruvchi) tartibga solishni maqsad qiladi. Bu yondashuv shuningdek, muvofiqlashtirish va bilimga oid muammolarga ham yechim bo'lib, tartibga solish jarayonini yanada interaktiv qiladi — ya'ni manfaatdor tomonlar, soha mutaxassislari, sanoat uyushmalari va sertifikatlash tashkilotlari kabi yarim-nazorat organlarini jalb etadi. Bu orqali qonun chiqaruvchilar masalalarni har tomonlama, xilma-xil nuqtai nazardan ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi va shu bilan birga, tartibga solish choralari manfaatdor tomonlar tomonidan kengroq qabul qilinishiga erishiladi."²

"Aqlli tartibga solish" — bu nafaqat byurokratik yuklamani kamaytirish, balki ilmiy-tahliliy yondashuv orqali yuqori sifatli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, manfaatdor tomonlar bilan interaktiv munosabat o'rnatish va ijtimoiy-iqtisodiy kontekstni hisobga olish tamoyillariga asoslanadi. Bu tizimda "kamroq – yaxshiroq" prinsipiga tayangan holda, huquqiy me'yorlar sonining emas, balki ularning sifati va amaliy foydasining oshirilishi maqsad qilinadi.

Shu tarzda, an'anaviy nazoratga asoslangan usullardan samaradorlik, moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvga yo'naltirilgan tartibga solish tizimiga o'tish zamonaviy huquqiy davlat boshqaruvining ajralmas qismiga aylandi.

Tartibga solish ta'sirini baholash odatda ikki asosiy yondashuv asosida amalga oshiriladi: tartibga solish kuchga kirishidan oldingi baholash (ex-ante) va u ijro etilgach olib boriladigan tahliliy monitoring (ex-post). Ex-ante yondashuv normativ-huquqiy hujjat loyahasining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini prognozlash orqali tashkilotlarga asosli qarorlar qabul qilish imkonini bersa, ex-post baholash esa amaldagi tartibga solish chora-tadbirlari samaradorligini real hayotiy ko'rsatkichlar orqali aniqlab, zarurat tug'ilganda ularni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Huquqiy va nazariy doirada "**ex-ante**" tushunchasi voqelik hali shakllanmasdan oldin uni **oldindan ko'ra bilish**, huquqiy oqibatlarni **bashorat qilish** va ularning ehtimolini baholashni anglatadi. Bu yondashuv, ayniqsa, qonun ijodkorligi yoki normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishida, **potensial xavf va imkoniyatlarni oldindan ko'zda tutish** orqali huquqiy barqarorlikka erishish maqsadida qo'llaniladi.³

Huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshirish maqsadida ex-ante uslubidan foydalanish bugungi kunda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv asosida tartibga solish zarur bo'lgan ijtimoiy

² <https://epthinktank.eu/2020/09/23/disruption-by-technology-impacts-on-politics-economics-and-society/smart-regulation/>

³ <https://mafr.fr/en/article/ex-ante-ex-post2/>

munosabatlar doirasi chuqur tahlil qilinadi va quyidagi konseptual bosqichlar amalga oshiriladi:

- Muammoni tahlil qilish – tartibga solishga ehtiyoj mavjud bo'lgan sohada yuzaga kelgan huquqiy yoki ijtimoiy muammoni aniqlash va uni chuqur tahlil qilish.

- Davlat aralashuvining zarurligini asoslash – mavjud muammo sharoitida davlatning normativ-huquqiy chora-tadbirlari orqali aralashuvi qanchalik asosli ekanligini aniqlash.

- Tartibga solish maqsadlarini belgilash – kutilayotgan huquqiy natijalarni aniq maqsadlar shaklida ifodalash.

- Muqobil yechimlarni tahlil qilish – muammoni hal etish bo'yicha bir nechta variantlarni ishlab chiqish, ularning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy afzallik hamda kamchiliklarini baholash.

- Eng maqbul muqobilni asoslash – tanlangan yechimning maqsadga muvofiqligini ilmiy-huquqiy mezonlar asosida dalillash.

- Foyda va xarajatlar tahlilini o'tkazish – loyiha amalga oshirilganda yuzaga keladigan potensial ijobiy va salbiy ta'sirlarni manfaatdor tomonlar nuqtayi nazaridan baholash.

- Raqobat muhitiga ta'sirini aniqlash – tartibga solish tashabbusining bozordagi erkin raqobatga bo'lgan ta'sirini tahlil qilish.

- Kutilayotgan natijalarni prognozlash – normativ hujjat qabul qilingach erishilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-huquqiy va iqtisodiy natijalarni oldindan belgilash.

- Zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish – qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qanday aniq huquqiy mexanizmlar va amaliy choralar ko'rilishini aniqlash.

- Jamoatchilik muhokamasi va takomillashtirish – loyiha matnini keng jamoatchilikka taqdim etish, fikr-mulohazalarni yig'ish va asosli takliflar asosida uni takomillashtirish.

- Amal qilish muddatini asoslash – normativ-huquqiy hujjatning amalda bo'lish muddati (agar u cheklangan bo'lsa) huquqiy va funksional mezonlar asosida belgilab chiqiladi.

Ex-post tartibga solish amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning belgilangan maqsadga erishishdagi muvaffaqiyat darajasini, qo'llanilgan mexanizmlarning samaradorligini hamda kutilmagan salbiy oqibatlar yuzaga kelgan-kelmaganini real statistik ma'lumotlar asosida kompleks baholash orqali aniqlashga qaratilgan retrospektiv yondashuv hisoblanadi. Bunday baholash jarayonida nafaqat normativ-huquqiy tartibga solishning iqtisodiy va ijtimoiy foydasi, balki u bilan bog'liq xarajatlarning manfaatdor guruhlar o'rtasida taqsimlanishi, mavjud tartibga solish variantlarining optimalligi va ularning mamlakatdagi dolzarb islohotlarga muvofiqligi ham puxta tahlil etilishi lozim bo'ladi. "Ex-post" usulini qo'llashda quyidagilar amalga oshiriladi:

- Manfaatdor tomonlarni tahlil qilish – normativ-huquqiy hujjatning qaysi ijtimoiy, iqtisodiy yoki institutsional guruhlariga ta'sir ko'rsatganini aniqlash.

- Tartibga solish vositasining natijadorligini baholash – belgilangan maqsadlarga erishilganlik darajasi va amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish.

- Ijobiy va salbiy oqibatlarni aniqlash – tartibga solish natijasida yuzaga kelgan kutilgan yoki kutilmagan, ijobiy va salbiy ta'sirlarni aniqlash.

- Samaradorlikni o'rganish – qo'llanilgan resurslar va erishilgan natijalar o'rtasidagi muvofiqlikni tahlil qilish.

- Raqobat muhitiga ta'sirni baholash – hujjatning bozor ishtirokchilari o'rtasidagi raqobatga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlash.

- Dolzarblikni tahlil qilish – tartibga solish vositasi hanuzgacha aktual va zarurligini yoki uni bekor qilish kerakligini aniqlash.

- Jamoatchilik muhokamasi asosida hisobotni takomillashtirish – baholash natijalari asosida tayyorlangan hisobotni jamoatchilikka taqdim etish va bildirilgan fikrlar asosida uni takomillashtirish.

Normativ-huquqiy hujjatlarning samaradorligini aniqlashda “ex-post” baholash usulidan foydalanish, tartibga solish chora-tadbirlarining natijadorligi, samara berishi va dolzarbligini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu baholash mexanizmi, avvalo, tartibga solish bo'yicha ilgari belgilangan maqsadlarga erishilganlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Natijadorlik deganda – rejalashtirilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilish ko'lamini, shuningdek, belgilangan natijalarga qanchalik muvaffaqiyat bilan erishilganligi tushuniladi. Normativ-huquqiy tartibga solish samaradorligini aniqlashda ijro mexanizmining qanday ishlagani muhim rol o'ynaydi. Bunda, nafaqat asosiy maqsadlar, balki ularni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan kutilmagan salbiy yoki ijobiy oqibatlar ham o'rganiladi. Agar dastlabki maqsadlar amalga oshmagan yoki rejadagi tadbirlar yetarli darajada bajarilmagan bo'lsa, buning sabablari alohida tahlil qilinadi. Bu jarayonda mavjud tafovutlar darajasi va ularga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, normativ-huquqiy mexanizmida mavjud bo'lgan bo'shliqlar yoritiladi. Bunday baholashda tartibga solish vaqtida amalga oshirilganligi hamda erishilgan natijalar va ularning sarflangan resurslarga nisbatan mosligi baholanadi. Tartibga solishning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muqobil variantlari ham o'rganilib, kam xarajat evaziga ko'proq foyda olish imkoniyati mavjudmi — degan savolga javob izlanadi. Chunki turli yondashuvlar, ayni maqsadga erishishda turlicha samarani yuzaga chiqarishi mumkin.

Shuningdek, tartibga solish mexanizmining o'ziga xos xususiyati sifatida, manfaatdor tomonlar uchun yuzaga keladigan xarajatlar va ularga nisbatan keltiriladigan foydalar ham chuqur tahlil qilinadi. Amaliyotda tartibga solish choralari har doim ham barcha ijtimoiy qatlamlar uchun teng foyda bermasligi mumkin. Ayniqsa, bu holat sog'liqni saqlash, ekologik xavfsizlik, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish kabi sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois, tartibga solish bilan bog'liq foyda va xarajatlar o'rtasidagi nisbat hamda unga ta'sir qiluvchi omillar to'liq aniqlanishi zarur. Tahlil jarayonining yana bir muhim jihati — bu tartibga solishning dolzarbligidir. Ya'ni, mavjud tartibga solish choralari bugungi kun talablariga mosligi, ularning bekor qilinishi yoki yangilanishi zarurati o'rganiladi. Bu yerda yondashuvlar mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, tarmoqlar bo'yicha ustuvor vazifalar va jahon amaliyotidagi ilg'or tajribalar bilan uyg'unlikda baholanadi. Shunday qilib, “ex-post” baholash yondashuvi nafaqat qonunchilik hujjatlarining rasmiy amalga oshirilganlik darajasini ko'rsatadi, balki ularning amaliyotdagi haqiqiy natijasini, samaradorligini va dolzarbligini aniq, tizimli va ilmiy asosda o'rganishga zamin yaratadi. Bu esa, huquqiy tartibga solishning sifat jihatidan oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbaalar:

1. Тартибга солиш таъсирини баҳолаш. Ўқув қўлланма. – М.Аллакулиев, М.Назаров, М.Кабилова, Д.Пардаев, М.Нажмиддинов. – Тошкент: «...», 2024. – ...б
2. <https://epthinktank.eu/2020/09/23/disruption-by-technology-impacts-on-politics-economics-and-society/smart-regulation/>
3. <https://mafr.fr/en/article/ex-ante-ex-post2/>
4. Lex.uz huquqiy hujjatlar portali